

Oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etishning metodik shart-sharoitlari

Shahodatxon Ro'ziboy qizi Noraliyeva
Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etishning pedagogik va metodik asoslarining nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, kredit-modul tizimining ta'limdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, ta'lim shakllari, kredit-modul, pedagogik va metodik shart-sharoitlar, ECTS.

Methodological conditions for the introduction of credit-module system in higher education

Shahodatkhon Roziboy qizi Noraliyeva
Tashkent State Pedagogical University

Abstract: This article describes the theoretical basis of the pedagogical and methodological basis for the introduction of the credit-module system in higher education. It also provides detailed information on the importance of the credit-module system in education.

Keywords: higher education system, forms of education, credit module, pedagogical and methodological conditions, ECTS.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida kredit modul tizimi bosqichma bosqich joriy qilina boshladi. Kredit-modul o'qitish shakli o'quv moduli tarkibini yaratishga asoslangan, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi, o'quv jarayoni natijalari va yakuniy nazorat

ishlarini kuzatib borish orqali o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi. Kredit (credit) - talabalarning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) doirasida fanlarni o'qib-o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligi hisoblanadi. Kredit - talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun o'quv yillarida o'tib borilgan majuriy hamda tanlav fanlardan kreditlarni yig'ib borishi lozim. Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Talabalarga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Modul esa bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi hisoblanadi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'zi o'rganadi hamda berilgan vazifa va topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

Kredit-modul tizimi bu - ta'limni aynan kredit-modul asosida tashkil etish modelidir. Lekin uni tashkil qilish ko'p jixatdan serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy jixatga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit modul tizimining shakllanishi AQSh ta'lim tizimi bilan bog'liq. Dastlab o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. 1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerikada ko'zga ko'ringan ta'lim fidoyisi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" iborasini ilk marotaba qo'llaydi. Shunday qilib, 1870-1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi.¹

Umuman olganda o'quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish oliy ta'lim muassalariga quyidagi afzalliklarni beradi:

- o'quv dasturining modulli tuzilishini yaratish imkoniyati;
- mehnat intensivligini baholash uchun kreditlardan foydalanish imkoniyati;
- bilimlarni baholash uchun ball-reyting tizimlaridan foydalanish imkoniyati;
- Individual o'quv rejasini shakllantirishda talabalarning ishtiroki;

¹ O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

- ta'lim jarayonida o'z-o'zini ta'lim olish ulushini oshirish imkoniyati;
- Ta'lim dasturlarining moslashuvchanligini oshirish imkoniyati.

Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi. Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi. Kredit modul tizimining rivojlanish siklini quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz: Garvard universiteti 1872 yilda AQSh kredit tizimi (USCS), 1989-yilda Yevropa kredit tizimi yangi kredit-modul tizimi qoidalarini ishlab chiqadi va uni European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlaydi. Yevropa Ittifoqi davlatlari universitetlari o'rtasida talabalar almashinuvi rivojlana boshlaydi. 1999 yilga kelib Yevropada Bolonya protsessi deb atalgan Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish xalqaro forumi ish boshlaydi. Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

❖ birinchisi, talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;

❖ ikkinchisi, talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama - kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi².

Forumning maqsadi Yevropa davlatlarida oliy ta'lim standartlari va sifatini uyg'unlashtirishga qaratilgan edi. Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilganidir.

Modul -bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy

² 2015 European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) User's Guide, a Joint Project by the European Higher Education Area, the Bologna

mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabani faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'qiydi va o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan tashkil topadi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat soxaga ta'luqli axborotlar, balki ularni qayta ishlash, ishlab chiqarish amaliyotiga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabani fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan bilim va malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabani barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari ball berish orqali baholanadi.

Bizga ma'lumki, kundalik turmushda ko'pgina narsalarning o'z o'lchov birligi mavjud. Masalan, vaqt o'lchov birligi - sekund, uzunlik o'lchovi - metr, og'irlik - kilo, suyuqlik - litr, elektr kuchlanish o'lchovi - amper. Shunda bir savol paydo bo'ladi: ta'limning, jumladan oliy ta'limning ham o'lchov birligi bormi? Aytishingiz mumkin, ha oliy ta'limning o'lchov birliklari bu bakalavr, magistratura va doktorantura deb. Lekin bular ta'limning o'lchov birliklari emas balki uning bosqichlari hisoblanadi. Afsuski, hozirda mamlakatimizda oliy ta'limning talabalar progressini, ularning mutaxassis sifatida shakllanishini muntazam ravishda baholab boruvchi hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligi mavjud emas.

Kredit-modul tizimi avvalambor, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal, zamonaviy lekin hamma uchun tushunarli bo'lgan o'lchov birligini olib kiradi. Unga ko'ra OTM o'quv dasturlari muayyan o'qish natijalarini ko'zlovchi turli fan va modullarga bo'linadi. Xar bir fan yoki

modul esa undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Masalan har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7, 5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi va tegishli miqdordagi kreditlarni to'plagandan so'ng unga bakalavr yoki magistratura darajasi berilishi belgilanadi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.³

Talabaga fanlarni hamda professor-o'qituvchilarni tanlash u yoqda tursin, zerikarli bo'lgan mashg'ulotlardan voz kechib, kutubxonada o'qib-o'rganishiga ham imkon berilmas edi. Talabaning dars mashg'ulotlarini qoldirishiga jiddiy talafot sifatida qaralib, bir semestrda 30 soatdan oshsa ogohlantirish, 74 soatdan oshsa, talabalik safidan chiqarishgacha borilardi. Talabaga ushbu fan va o'qituvchi yoqadimi-yoqmaydimi, berilayotgan bilimlar talabga javob bermasligi, armisoqdan qolib ketganmi-ketmaganmi, auditoriyada o'tirishi shart edi! Xullas, an'anaviy tizimda talaba kelajakda qanday bilimlarni egallashi, qanaqangi professor-o'qituvchilar dars berishi, yo'nalish profili, fanlarning qisqacha mazmuni bo'yicha hech qanday materiallar taqdim etilmasdi va OTM ni tugatib oily ma'lumotli diplom bilan chiqayotgan kadrlar talab dajasida raqobatbardosh emas.

Kreditlarni modullar bo'yicha taqsimlash; OTM o'quv dasturlari profillari yaratilgandan so'ng undagi fanlar va mashg'ulotlar ro'yxati shakllantiriladi. Dasturdagi o'quv fanlari bir qancha modullarga bo'linadi va ularning har qaysinisiga tegishli miqdorda kreditlar taqsimot qilinadi. Kreditlar har bir modul bo'yicha taqsimot qilinganda unda kelgusida belgilab olingan o'qish natijalariga erishishda talaba tomonidan taxminiy qancha o'qish yuklamasini bajarishi zarurligiga qarab belgilab beriladi. Bunday holatda o'qish yuklamalarning umumiy miqdori ularni bajarish uchun o'rta holda talaba taxminiy qancha vaqt sarflashi hisoblab olinadi. Eslatib o'tamiz, Yevropaning ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit miqdori 25-30 soat o'qish yuklamasiga tengdir.⁴

ECTS tizimida kreditlarning o'quv dasturlari bo'yicha, o'quv yillari bo'yicha va semestrlar bo'yicha taqsimoti oldindan belgilab qo'yiladi. Bunda Oliy ta'lim muassalari o'quv dasturlari bo'yicha, o'quv yili yoki semestrlar bo'yicha aniq

³ European Commission ECTS Guide of 2004. Available at https://www.uc.pt/ge3s/pasta_docs/ects-users-guide170804.pdf

⁴ O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

belgilanadigan kreditlar miqdorini o'zlaricha belgilab ololmaydilar. Buni belgilashda aniq qoidalar bor.

Kreditlarni dasturlar bo'yicha taqsimlash. Kreditlarning o'quv dasturlari bo'yicha taqsimlashda har bir malakatning oliy ta'lim tizimi darajalariga qarab amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida ECTS tizimida faoliyat yuritadigan Oliy ta'lim muassalarida bu taqsimot bakalavriat yo'nalishlarida to'rt o'quv yilida 240 kredit, magistratura yo'nalishlarida ikki o'quv yilida 120 kredit va doktorantura dasturlari xususiyatlaridan kelib chiqqan, turlicha belgilanishi mumkin.⁵ Bu taqsimot qoidalarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Kreditlarni o'quv yillari va semestrlar bo'yicha taqsimlash. Kreditlarning o'quv yillari va semestrlar bo'yicha taqsimoti quyidagidek ko'rinishda bo'ladi: 1 yil jami 60 kreditga teng, 1 semestr jami 30 kreditga teng. Ammo, bir o'quv yili davomiyligi 2 emas balki 3 semestr dan iborat bo'lgan o'quv dasturlarida esa 60 kredit umumiy 3 ta teng qismlarga bo'linadi.

Kreditni modullar bo'yicha taqsimlash. Kreditlarni modullar bo'yicha taqsimlash Oliy ta'lim muassalari tomonidan, ayrim vaqtlarda esa tegishli fakultet tomonidan amalga oshirilib, Oliy ta'lim muassalarining o'z kengashida tasdiqlanadi.

Kreditlarni taqsimlash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi:

- Modullar bo'yicha taqsimlash;
- Modullar bo'lmagan holatda taqsimlash;

Kreditlarni ushbu ko'rinishdagi taqsimlash holatlarida bu usullarining o'ziga xos qulaylik va noqulaylik tomonlari mavjuddir.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimiga asta-sekinlik bilan ta'limning «kredit-modul» tizimi kirib kelmoqda. Hozirgi vaqtda Oliy ta'lim muassalari tomonidan ushbu tizimni to'liq o'rganib chiqqan holda uni o'quv jarayoniga to'g'ri tadbiq etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizdagi OTMlarda an'anaviy o'qitish tizimining salbiy jihatlaridan voz kechish va xalqaro standartlar talablari doirasida ishlarni tashkil etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham kredit modul tizimi, uning maqsad va vazifalari, afzalliklari va kredit-modul tizimida uchinchi semestri tashkil qilish masalalari bo'yicha fikr-mulohaza yuritildi. Taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'grisida"gi O'RQ-406 son qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'grisida"gi O'RQ-576 son qonuni.

⁵ *Адам С., Блок П. ЭСТС: от перезачета к накоплению кредитов: Вызов 21-го столетия / Перев. Е.В. Шевченко // ЭАИЕ Форум. 1999. Вол. И. Но 3. П. 8–9.*

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘grisida”gi O‘RQ-637 son qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» (07.02.2017 yil PF-4947).